

Ro'yxat raqami 15

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"

Boshqaruvining

2023-yil "19" dekabr dagi

43-sonli qarori bilan

"TASDIQLANGAN"

Boshqaruv raisi

S.S.Annaklichev



"Biznesni rivojlantirish banki" ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti

("19" dekabr 2023-yildan kuchga kiradi)

Toshkent – 2023-yil.

"BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB
ICHKI ME'YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament “Biznesni rivojlantirish banki” ATB va uning hududiy hamda tarkibiy tuzilmalari(keyingi o‘rinlarda –bank)da korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralarini ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament bankning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, bank raisiga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Bankning har bir xodimi korrupsiya xolatlariga muvofiq gumon yoki asos yuzaga kelganda Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamentiga/Komplaens nazorati departamenti xabar berishi lozim.

4. Murojaatchining (bank xodimi yoki boshqa shaxsning) shaxsi va korrupsiya harakatlari haqidagi taqdim etgan ma’lumotlari konfidensial ma’lumotlar xisoblanadi va bankning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatiga asosan belgilangan tartibda maxfiyligi va xavfsizligi himoya qilinadi. Bankdagi har qanday qoidabuzilishlar bo‘yicha ma’lumotni vijdonan oshkor qilgan shaxsga nisbatan salbiy ta’sir o‘tkazilishi yoki xuquqlarini paymol qilinishi taqiqlanadi.

5. Bank xodimi yoki boshqa har qanday shaxs (potensial arizachi) korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida ma’lumotlar (veb-sayt, ma’lumot broshyuralari, videokliplar, hujjatlashtirilgan ma’lumotlar) bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Agarda murojaatchi qo‘shimcha ma’lumot olmoqchi bo‘lgan taqdirda Komplaens nazorati departamentiga murojaat qilib korrupsiyaga karshi kurashishga oid qo‘shimcha ma’lumotlarni olishi mumkun.

6. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ishonch telefoni – bankka korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishonch liniyasi orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan xolda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qiluvchi tizim;

murojaatchi – korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasi orqali bankdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik

bilan fuqarolarning, banklarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik – korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korruptsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, bank xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

korruptsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan bank nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korruptsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

taalluqliligi bo'yicha xabar (murojaat) – bankdagi korruptsiyaviy xarakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar yoki murojaat;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida o'zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini yo'lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlarini).

7. Bank korruptsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfedensiallik va xavfsizlik – korruptsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasining xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan bankning barcha vakolatli shaxslari (bank rahbariyati, Xavfsilik va axborotlarni muxofaza qilish xamda Komplaens nazorati departamentlar xodimlari) ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqqi yo'q. Agar murojaatchi o'z xabarini yuborganligi xaqida boshqa

xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o'z xoxishiga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, bank uning oshkor bo'lishiga javobgar bo'lmaydi;

qonuniylik – bank korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens ishonch liniyasiga kelib tushadigan xabarlarini qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta'qib qilinmasligi – korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasi orqali korrupsiyaviy xarakterli xaqida o'z xoxishiga ko'ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan bank xodimi xabarning mazmunidan qat'iy nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari bank tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta'sir choralari qo'llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, bank aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi;

korrupsiyaga oid maslahat – murojaatchi, korrupsiyaviy qoidabuzarlikga yoki korrupsiyani anglatishi mumkin bo'lgan vaziyatga duch kelganda nima qilishi kerakligi to'g'risida Komplaens-nazorat boshqarmasi tomonidan maslahat olishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

8. Taalluqliligi bo'yicha xabalar quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

bankning rasmiy veb-sayti (<https://brb.uz/appeal/>);

bankning ishonch telefon raqami orqali (78150-59-95);

bankning telegram boti (@BRB_Antikor_bot);

bankning elektron pochta manzili (antikor@brb.uz);

bankga og'zaki-yozma (shaxsan) murojaat qilish;

bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va saxifalari (misol uchun "Fasebook"dagi rasmiy saxifasi) koll-sentr, elektron murojaat va mazkur Reglamentda ko'rsatilmagan boshqa aloqa kanallari orqali kelib tushgan ma'lumotlarni qabul qilgan tegishli tarkibiy bo'linmalar xabarni Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamentiga yetkazadi.

9. Bank korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasi to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmokdagi saxifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o'quv materiallariga kiritadi, bank binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va xokazolarda aks ettiradi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasi orqali kelib tushayotgan xabarlarini qabul qilish

10. Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti bankning korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasidan kelib tushgan xabarlarni dastlabki ko‘rib chiqish va reestirini yuritishga mas’ul xisoblanadi.

11. Bankga kelib tushgan taalluqli xabarlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqdangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi banklarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom va bankning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyusiya uchun bank boshqaruvi raisiga chiqariladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;
korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasi orqali;
bankga og‘zaki-yozma (shaxsan) murojaat qilish;
huquqni muxofaza qiluvchi organlar orqali.

12. Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch liniyasi orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti mas’ul xodimi tayinlanadi va barcha habarlar maxfiy tarzda saqlanadi va tegishli tartibda o‘rganiladi.

Bunda, taalluqliligi bo‘yicha xabar kelib tushganda Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti mas’ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo‘li bilan yoki telefon orqali bog‘lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni reestrda ro‘yxatga oladi va ma’lumotni Komplaens nazorati departamentiga taqdim etadi.

Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti mas’ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

13. Agar murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo‘lsa, mas’ul bo‘lgan xodim ularni qabul qilib oladi va taqdim etiladigan ma’lumotni konfidensialligini saqlaydi. Mazkur ma’lumotlar taalluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

14. Bankning Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti taalluqliligi bo‘yicha xabarni olgandan keyin mazkur Reglamentning 1-ilovasida korsatilgan shaklda bankda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o‘rinlarda – Reestr) ro‘yxatga olishi va IV-bo‘limiga muvofiq ko‘rib chiqishi lozim.

15. Bank murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xarakatlar to‘g‘risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda bankning ma’sul xodimi, imkon mavjud bo‘lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:



bankga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lana olmasliklari mumkinligi haqida ma'lum qilishi;

qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xabarni to'liq va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi.

murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

16. Bank xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari xam tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish xamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

17. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taalluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) 3 yildan kam bo'lmagan muddatda saqlanishi lozim.

18. Taalluqliligi bo'yicha xabarlar bankning hududiy va tarkibiy bo'linmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas'ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti mas'ul xodimini kelib tushgan xabar to'g'risida xabardor qiladi, u o'z navbatida ushbu xabarni bankning Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamentiga yuboradi.

19. Bankning hududiy va tarkibiy bo'linmalari o'zlarining Reestrini yuritadi.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish

20. Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamentiga kelib tushgan barcha xabarlar ushbu departamentning mas'ul xodimlari yoki bank Boshqaruvi raisi topshirig'iga asosan bankning boshqa tarkibiy tuzilmalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Agar kelib tushgan xabar yoki murojaat korrupsiya yoki manfaatlar to'qnashuviga oid bo'lmasa, Xavfsizlik va axborotlarni muxofaza qilish departamenti xodimi tomonidan mazkur xabar/murojaat ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

21. Korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida o'z xatti-harakatlari ustidan Taalluqliligi bo'yicha xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

22. Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamentiga tomonidan taalluqliligi bo'yicha xabarlar reestriga kiritiladi va ushbu Reglamentning 2-ilovasiga muvofiq karta shaklida rasmiylashtiriladi hamda 1 (bir) kunlik

muddatda dastlabki tekshiruv o'tkazish uchun Komplaens nazorati departamentiga takdim etiladi.

Komplaens nazorati departamenti tomonidan dastlabki tekshirish, xabar kelib tushgan kundan boshlab **5** (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Bunda xabarning qanchalik aloqadoriligi tekshiriladi va tahlil qilinadi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar to'qnashuviga tegishliligi tekshiriladi.

23. Mazkur Reglamentning 22-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot reestrga kiritiladi.

24. Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti tomonidan mazkur xabar taalluqli emas degan xulosaga kelsa, uni bir ish kuni ichida bankning tegishliligi bo'yicha boshqa tarkibiy tuzilmasiga bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

25. Agar xabarda korrupsiyaviy xarakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi xaqida ma'lumot xamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, bank rahbari tomonidan ichki me'yoriy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish haqida qaror qabul qiladi.

26. Taalluqliligi bo'yicha xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish bankga kelib tushgan kundan e'tiboran **15** (o'n besh) kun ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, bankning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan 1 (bir) oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

27. Murojaatga javob Komplaens nazorati departamenti tomonidan tayyorlanib, bank Boshqaruvi raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolangan holda yozma shaklda yoki ijtimoiy tarmoqdagi kanal, sahifalar, telegram-bot orqali yuboriladi.

28. Taalluqliligi bo'yicha xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra, o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

5-bob. Hisobdorlik

29. Reestrda bank Boshqaruvi raisi va uning o'rinbosarlari, Komplaens nazorati departament xodimlari, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti hamda xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan boshqa xodimlar foydalanishlari mumkin.

30. Reestr ma'lumotlari asosida Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti/Komplaens nazorati departamenti har chorakda bank rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risidagi xabarlarga taalluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taalluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taalluqli xabarlar soni;

korruptsiyaviy xarakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taaluqli xabarlar soni;

ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taaluqli xabarlar soni;

taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;

murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan Korruptsiyaga qarshi kurashish komplaens ishonch liniyasi va boshqa statistik ma'lumotlar.

6-bob. Yakuniy qoidalar

31. Mazkur Reglament talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

32. Mazkur Reglament, murojaatlar va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

33. Ushbu Reglament bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi hamda bank Boshqaruvining 2022-yil 28-fevraldagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan "ATB "Qishloq qurilish bank"ga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va kurib chiqish Reglamenti" (290-son bilan ro'yxatga olingan) va 2022-yil 28-dekabrda 41-sonli qarori bilan tasdiqlangan "ATB "Qishloq qurilish bank"ga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va kurib chiqish Reglamentiga 1-sonli o'zgartirishlar" (290-1-son bilan ro'yxatga olingan) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

**Komplaens nazorat
departamenti boshlig'i**



J. Yusupov

Ichki me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ekspert guruhi:


B. Djumayev



A. Ravshanov



J. Yusupov



A. Normuradov



E. Qilichov

A. Xolov



Sh. Ochilov




S. Xidirov



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBga aloqa kanallari
orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib
tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish
Reglamenti
1-Ilova

**Bankda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish
REESTRI**

T/r	Xabar kelib tushgan sana	Hudud	Xabarning toifasi (korrupsiyaviy xatti-harakat, manfaatlar to‘qashuvi)	Murojaatlar bilan ishlash tizimida ro‘yxatga olingan sana va raqami	Xabar yuboril- gan aloqa kanali	Murojaatchi ma‘lumotlari (jismoniy yoki yuridik shaxs, qayta aloqa ma‘lumotlari)	Xabarning qisqacha mazmuni	Xabar taaluqli bo‘lgan tuzilma	Ko‘rib chiqish natijalari qanoatlantirildi/ tushuntirish berildi/ ko‘rmasdan qoldirildi	Murojaatchiga javob yuborilgan sana va xat raqami	Ijrochi	Xabarni ko‘rib chiqqan tuzilma rahbari	Izoh
1.													
2.													
...													



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBga aloqa kanallari
orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib
tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti
2-Ilova

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “Komplaens ishonch liniyasi” orqali qabul
qilingan murojaatlarning karta raqami_____**

Sana, vaqti _____

("Ishonch liniyasi"ga so‘rov kelib tushgan kun, oy, yil, soat, daqiqa)

Fuqoraning familiyasi, ismi, otasining ismi, tashkilotning nomi

(Fuqaroning to‘liq ismi, tashkilotning nomi yoki yozuv yoziladi fuqaroning tashkilotning familiyasi, ismi, otasining ismi,
ismini ko‘rsatmaganligi).

Fuqaroning yashash manzili, tashkilotning yuridik manzili

(fuqaro tomonidan ko‘rsatilgan manzil yoki fuqaroning manzilini ko‘rsatmaganligi to‘g‘risida yozuv yoziladi)

Aloqa telefon raqami _____

(fuqaro qo‘ng‘iroq qilgan va/yoki xabar qilingan telefon raqami yoki bu xaqda yozuv yozilgan) telefon aniqlanmaganligi
va/yoki fuqaro telefon raqamini ko‘rsatilmaganligi)

Kimga nisbatan murojaat qabul qilindi _____

(Bank xodimining yoki boshqa shaxsning to‘liq ismi)

Murojaatning mazmuni

Murojaat kim tomonidan qabul qilindi

(Murojaatni qabul qilgan shaxsning familiyasi va bosh xarflari, imzosi)

